


Elektr va magnit maydonlarni o'zaro bog'liqligi.

1. Keltirilgan ta'riflardan qaysi birida tok kuchi birligi (1 A) to'g'ri aniqlangan? A) induktivligi 1 H bo'lgan g'altak hosil qilayotgan to'la magnit oqim 1 Wb ga teng bo'lsa, g'altakdan o'tayotgan tok kuchi 1 A ga teng deb olinadi. B) o'tkazgich ko'ndalang kesimidan 1 s da 1 C zaryad o'tsa, o'tkazgichdan o'tayotgan tok kuchi 1 A ga teng deyiladi. C) qarshiligi 1 Ω , uchlaridagi kuchlanish 1 V bo'lgan o'tkazgichdan o'tgan tok kuchi 1 A ga teng deyiladi. (D) 1 A shunday o'zgarmas tokning kuchidirki bu tok vakuumda bir-biridan 1 m masofada joylashgan ikki parallel, cheksiz uzun kesimi juda kichik to'g'ri o'tkazgichlardan o'tganda, ular orasida o'tkazgichning har bir metr uzunligida $2 \cdot 10^{-7}$ N o'zaro ta'sir kuchini vujudga keltiradi.

2. Rux sulfat solingan elektrolitik vannada tok kuchi chiziqli $I=(2+0,02t)$ A qonun bo'yicha o'zgaradi. Elektrolit orqali 5 min ichida o'tgan elektr zaryadni aniqlang (C). A) 1400. (B) 1500. C) 1600. D) 1800.

3. Avtomobil elektrodvigatel-starteri akkumulatorlar batareyasidan 180 A tokda 5 s ishladi. Avtomobil yurgandan keyin, generator akkumulatorni 5 A tok bilan zaryadlay boshladi. Necha minutdan so'ng batareyaning ilgari holati tiklanadi? (A)3. B) 5. C) 9. D) 1,5.

4. Zanjirning bir qismidagi tok kuchi 6 s ichida 0 dan 1,5 A gacha bir tekis o'sdi. Tok kuchining vaqtga bog'lanish grafisini ko'rsating.



A) 1 B) 2 C) 3 (D) 4

5. O'tkazgichning ko'ndalang kesimi yuzidan vaqt birligida o'tayotgan elektronlar soni va o'tish vaqti 6 marta ortsa, o'tkazgichdan o'tayotgan tok kuchi qanday o'zgaradi? A) 36 marta ortadi. B) 6 marta kamayadi- (C) o'zgarmaydi. D) 6 marta ortadi.

6. Agar anodga har sekundda $5 \cdot 10^{16}$ ta elektron yetib borayotgan bo'lsa, anod zanjiridagi tok kuchi qanday bo'ladi (mA)? A) 5. (B) 8. C) 10. D) 16.

7. Ikki elektrodli lampaning anodiga har sekundda 10^{16} ta elektron yetib borsa, anod toki qanday (mA) bo'ladi? $e=1,6 \cdot 10^{-19}$ C. (A) 1,6. B) 2. C) 3,2. D) 1,2.

8. Tok zichligi deb nimaga aytiladi? Tok zichligi deb, ... A) o'tkazgichning ko'ndalang kesimidan vaqt birligi ichida o'tuvchi ... B) o'tkazgichning ko'ndalang kesimi yuza birligidan o'tuvchi ... C) o'tkazgich bo'ylab vaqt birligi ichida 1 m ga

siljigan ... (D) o'tkazgich ko'ndalang kesimi yuza birligidan vaqt birligida o'tuvchi ... zaryadga miqdor jihatdan teng bo'lgan vektor kattalikka aytiladi.

9. Qaysi javobda tok zichligining ifodasi to'g'ri berilgan? A) $j=I/S$. B) $j=q/(S t)$. C) $j=env$. D) $j=\sigma E$. (E) hamma javoblarda.

10. Quyidagi qaysi qatorda faqat skalar fizik kattaliklar keltirilgan? A) kuchlanish, zaryad, tok zichligi. B) tok kuchi, tok zichligi, maydon kuchlanganligi. (C) tok kuchi, EYK, zaryad. D) zaryad, maydon kuchlanganligi, kuchlanish.

11. Quyidagi qaysi qatorda faqat vektor fizik kattaliklar keltirilgan? (A) kuch, maydon kuchlanganligi, tok zichligi. B) maydon kuchlanganligi, EYK, tok kuchi. C) kuch, EYK, maydon kuchlanganligi. D) kuch, tok kuchi, tok zichligi.

12. Agar zanjirning potensial tushuvi U bo'lgan qismidagi o'tkazgich ko'ndalang kesim yuzi 9 marta katta, erkin zaryad tashuvchilarining tartibli harakat tezligi 3 marta kichik bo'lgan o'tkazgich bilan almashtirilsa, tok kuchi qanday o'zgaradi? A) 9 marta ortadi. B) 3 marta kamayadi. C) 27 marta ortadi. (D) 3 marta ortadi.

13. Elektrolitdagi bir valentli ionlarning umumiy konsentratsiyasi 10^{23} cm^{-3} ga teng. Shu elektrolit- dan 1,6 A tok o'tayotganda ionlarning harakat tezligi qanday (m/s) bo'ladi? Elektrodlardan har birining yuzi 10 cm^2 ga teng. $e=1,6 \cdot 10^{-19} \text{ C}$. A) 10^{-7} . B) 10^{-8} . C) 10^{-6} . D) 10^{-5} .